# “Surxon” sport majmuasidagi qurilish-ta’mirlash ishlari bilan tanishildi




“Surxon” sport majmuasidagi qurilish-ta’mirlash ishlari bilan tanishildi

Termiz shahridagi eng katta sport majmualaridan biri boʻlgan “Surxon” sport majmuasida sport va trenajyor zali, futbol, basketbol va valeybol maydonlari, tennis korti hamda stadion mavjud. Bugungi kunda «Eriell Group» kompaniyasi tomonidan majmuadagi futbol stadioni va tribunada keng koʻlamli qurilish-ta’mirlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Bugun viloyat hokimi Ulugʻbek Qosimov “Surxon” sport majmuasida boʻlib, amalga oshirilayotgan qurilish-ta’mirlash ishlari, majmuada yaratilgan sharoitlar va sport toʻgaraklari faoliyati bilan tanishdi.

Tanishuv davomida sport majmuasi imkoniyatlaridan keng foydalangan holda sportning yengil atletika turlari bilan shugʻullanuvchilar uchun imkoniyatlar yaratish, majmuaning moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash boʻyicha loyiha-



taqdimotlari bilan ham tanishilib, tegishli taklif va tavsiyalar berildi.



Image not found or type unknown





Image not found or type unknown



Image not found or type unknown